

ЛЕКСИЧЕСКАЯ ЭНАНТИОСЕМИЯ В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ И ПРИНЦИПЫ ЕЁ КЛАССИФИКАЦИИ

Аликулова Феруза Аброр кизи

Узбекский государственный университет мировых языков

Преподаватель кафедры корейской филологии

Ташкент, Узбекистан

Аннотация. В статье рассматривается явление лексической энантиосемии в корейском языке, а также принципы её классификации. Энантиосемия трактуется как сложное семантическое явление, при котором одна и та же лексема способна выражать противоположные значения. В исследовании обобщаются существующие подходы к изучению энантиосемических единиц в корейском языкознании и предлагается их классификация по типу семантической противопоставленности. В частности, выделяются единицы, основанные на комплементарной, градуальной и направительной противоположности. На основе конкретных примеров анализируются семантическое развитие различных лексических единиц, формирование противоположных значений под влиянием контекста, а также роль историко-культурных факторов в данном процессе.

Ключевые слова: энантиосемия, корейский язык, семантика, лексическое значение, антонимия, полисемия, противоположное значение, семантические отношения, языкознание, лексикология.

KOREYS TILIDA LEKSIK ENANTIOSEMIYALAR VA ULARNI TASNIFLASH TAMOYILLARI

Aliqulova Feruza Abror qizi,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,

Koreys filologiyasi kafedrası o‘qituvchisi,
Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada koreys tilidagi leksik enantiosemiya hodisasi va uni tasniflash tamoyillari tahlil qilinadi. Enantiosemiya bir leksemaning o‘zaro zid ma’nolarni ifodalashi bilan xarakterlanadigan murakkab semantik hodisa sifatida yoritiladi. Tadqiqotda koreys tilshunosligida enantiosemik birliklarni o‘rganishga oid mavjud qarashlar umumlashtirilib, ular komplimentar zidlik, darajaviy zidlik hamda yo‘nalish munosabatidagi zidlik kabi guruhlarga ajratiladi. Maqolada turli leksik birliklarning semantik rivojlanishi, kontekst ta’sirida qarama-qarshi ma’no kasb etishi hamda tarixiy-madaniy omillarning ushbu jarayondagi o‘rni misollar asosida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: enantiosemiya, koreys tili, semantika, leksik ma’no, antonimiya, polisemiya, zid ma’no, semantik munosabat, tilshunoslik, leksikologiya.

LEXICAL ENANTIOSEMY AND PRINCIPLES OF ITS CLASSIFICATION IN KOREAN LANGUAGE

Alikulova Feruza Abror qizi,
Uzbekistan State World Languages University,
Teacher of the Department of Korean Philology,
Tashkent, Uzbekistan

Abstract. This article examines the phenomenon of lexical enantiosemy in the Korean language and the principles of its classification. Enantiosemy is interpreted as a complex semantic phenomenon in which a single lexical unit expresses opposite meanings. The study summarizes existing approaches in Korean linguistics related to enantiosemic units and classifies them into complementary opposition, gradational opposition, and directional opposition. The paper analyzes the semantic development of lexical units, the emergence of opposite meanings under contextual influence, and the role of historical and cultural factors in this process through various examples.

Keywords: enantiosemy, Korean language, semantics, lexical meaning, antonymy, polysemy, opposite meaning, semantic relations, linguistics, lexicology.

Enantiosemiya bir soʻzning ikki qarama-qarshi maʼnolarda kelishini anglatuvchi lisoniy hodisadir. Koreys tilshunosligida qarama-qarshilik munosabati, asosan, antonimlar doirasida olib borilgan boʻlib, enantiosemiyani alohida tadqiq obyekti sifatida oʻrganilgan ishlar juda kam, ushbu hodisa toʻgʻrisida muayyan maqola yoki antonimiya, omonimiya, polisemiya bagʻishlangan tadqiqot ishlarida qisqacha aytib oʻtilgan. Koreys tilida enantiosemiyani turlarga ajratib oʻrganishda Do Jae-hak, Li Min-u, Li Song-yonlarning tadqiqotlarini alohida eʼtirof etmoq lozim. Ularning ishlarini umumlashtirgan holda koreys tilidagi enantiosemik birliklarni quyidagi 3 guruhga boʻlib oʻrganishni maʼqul deb topdik: 상보적 대립 (komplimentar zidlik), 정도적 대립 (daraja munosabatidagi zidlik), 방향적 대립 (yoʻnalish munosabatidagi zidlik).

상보적 대립 – komplimentar qarama-qarshilik ikki maʼno bir-birini istisno qiladigan va boshqa oʻrta soʻzga ega boʻlmagan munosabatni bildiradi. Boshqacha aytganda, bir maʼno komplementar qarama-qarshi munosabatda boʻlsa, uning semantik maʼnosini salbiylashtirish bilan qarama-qarshi maʼnoning semantik maʼnosi ijobiylashtiriladi. Bunday turdagi qarshilantirishda biror harakatning boshlanishi va yakunlanishi, biror narsaning mavjud boʻlishi va boʻlmasligi kabi maʼnoviy munosabatlar oʻrtasida ham boʻladi. Masalan, 무가 soʻzining “tekin” va “bebaho” maʼnolari oʻzaro zid hamda ular orasida oraliq tushuncha yoʻq. Bunday soʻzlarga misol qilib 값없다, 고문관, 놓다, 무가, 주책, 엉터리, 펍, 설사약, 과연 kabi soʻzlarni keltirish mumkin. Ushbu soʻzlarni ham mavjudlik darajasi va holat yoki harakatning salbiylik darajasiga koʻra turlarga boʻlish mumkin.

1) 주창

1. 일정한 주장이나 판단력.

나이를 먹다 보니 사람이 자꾸 주책만 없어진다.

Yoshi ulg'aygan sari odamlar kamroq ehtiyotkor bo'lishadi.

2. 이치를 분간할 만한 판단력이나 주견이 없이 마음대로 하는 짓.

그렇게 주책을 떨어 놓고 식구를 보기에 창피하지도 않아요?

O'zingizni bunday axmoqona tutishdan oila a'zolaringiz oldida ham uyalmaisizmi?

주책 so'zining odob-axloq meyorlariga mos keluvchi fikr, harakat yoki buning aksi – odob-axloq meyorlariga zid degan ma'nolari mavjud. So'zning dastlabki ma'nosi “odob-axloq me'yorlariga mos” bo'lgan, ammo bu so'z bilan birga qo'llanilgan **없다** inkor so'zi ta'sirida vaqt o'tib “axloqsiz, bema'ni harakat” qarama-qarshi ma'nosiga ega bo'lgan.

2) 없탕릇

1.noun 대강의 윤곽.

일주일 만에 일이 겨우 엉터리가 잡혔다.

Bir hafta o'tgach, muammo nihoyat hal qilindi.

2.noun 터무니없는 말이나 행동. 또는 그런 말이나 행동을 하는 사람.

싼 컴퓨터를 사는 것은 엉터리 절약이다.

Arzon kompyuterni olish bu axmoqona tejamkorlikdir.

3.noun 보기보다 매우 실속이 없거나 실제와 어긋나는 것.

이 물건은 겉만 번드르르했지 사실은 엉터리이다.

Bu mahsulot tashqi ko'rinishida ajoyib ko'rinadi, lekin aslida u hech nimaga yaramaydi.

엉터리 so'zi ham 주책 so'ziga o'xshab ma'lum bir sintaktik birlik bilan qo'shilib kelish natijasida salbiy ma'no kasb etgan. So'zning dastlabki ma'nosi “biror vaziyat, holat, narsa yuzasidan qisqacha muhim ma'lumot, tafsilot, yechim” bo'lgan. Ammo “없다” so'zi bilan birikib kelish natijasida vaqt o'tib so'z ma'nosiga zidlik yuklangan. Bunda so'z “bema'ni so'z, harakat yoki shu harakatni qiluvchi shaxs”, “soxta, haqiqatga mos kelmeydigan” ma'nolarini anglatadi.

3) 파

1.adv 갑자기 매우 힘차게 내지르는 소리. 또는 그 모양.

얼굴을 퍽 내지르다 – *yuziga qars etib urmoq*.

2.adv 갑자기 힘없이 거꾸러지는 소리. 또는 그 모양.

소파에 퍽 쓰러지다 – *divanga shilq etib yiqilmoq*.

퍽 so‘zi holatga nisbatan taqlid so‘z hisoblanib, kuch bilan baqirish va judayam kuchsiz holatda qulash, yiqilish holatlariga nisbatan keladi. So‘zning asl ma’nosi kuch bilan hayqirish, baland ovoz ma’nosi bo‘lib, so‘zning ikkinchi paydo bo‘lgan ma’nosi matnda qo‘llanilganda anglashiladi.

4) 값없다

1. 하찮아서 값이 나가지 않다.

값없는 일로 시간을 허비했다 - *Arzimas ish bilan vaqtini bekorga o‘tkazdim*.

2. 너무 귀해 값을 해야될 수 없다.

값없는 공기 – *bebaho havo*.

Koreys tilida 값없다 so‘zi 값 (baho, qiymat) + 없다 (yo‘q) birikma asosida yasalganligi sabab bu yerda enantiosemiya so‘zning birikma munosabatida aks etgan deb hisoblanadi. Bunda so‘z bilan birga keluvchi muayyan boshqa bir element tushib qolishi natijasida so‘z teskari ma’noga ega bo‘lib qoladi. Masalan, 값없다 so‘zini “hech qanday qiymati yo‘q, bahosi yo‘q” va “qiymatini baholab bo‘lmas darajada bahosiz, bebaho” tarzida qo‘llashimiz mumkin. Oldingi ma’no so‘zma-so‘z talqin qilish orqali yaratilgan ma’no bo‘lib, keyingi ma’noda esa “값을 매길 수 없다” (baholashni iloji yo‘q) 매기다 (baholamoq) so‘zi tushib qolgani uchun so‘z zid ma’no kasb etdi.

5) 물—

1. 값이 없음.

요즈음 무가로 배달되는 신문이 많다.

Shu kunlarda tekinga yetkazib beriladigan gazetalar juda ko‘p.

2. 값을 매길 수 없을 만큼 귀중함.

그 골동품은 너무 희귀하기 때문에 무가이다.

Bu antikvar buyum juda kamyobligi sabab bebahodir.

Asl ma'nosi "tekin" bo'lgan 무가 so'zi ham matn ichida kelganda teskari ma'noda – "juda ham bebaho, narxi yo'q" ma'nolarida qo'llanishi mumkin.

6) 설사였

1.noun 약학 설사를 멎게 하는 약. 창자 운동 억제 약물과 흡착제를 주로 사용한다.

철이는 치안 대원이 구해 준 이름 모를 설사약과 더운물을 먹고 제범생기를 되찾았다.

Cheol qo'riqchi bergan o'zi nomini bilmaydigan ich ketishiga qarshi dori va issiq suvni ichgach o'ziga keldi.

2.noun 약학 설사가 나게 하는 약.

변비가 심할 경우에는 설사약을 먹거나 관장을 한다.

Agar ich qotishi og'ir bo'lsa, ich ketkazuvchi dorilar ichiladi yoki ho'qna qilinadi.

설사약 va shu bilan birga 두통약 (bosh og'riq dorisi) , 변비약 (qabziyat dorisi) so'zlari asl ma'nosida "kasallikni davolovchi dori" sifatida tushuniladi. Ammo matn ichida kelganda ular "ich suruvchi dori", "bosh og'rig'i paydo qiluvchi dori", "ich qotiruvchi dori" ma'nolarida ham kelishi mumkin.

7) 겐무곶 so'zi "ayrim masalalarni hal qilish bo'yicha maslahat beruvchi mansabdor shaxs" va "biror ishni bilmaydigan, no'noq" ma'nolarida "biror ishni bilmoq va bilmaslik" kabi semantik ma'nolarga ega. 고문관 so'zi aslida harbiy sohada "ofitser" ma'nosini anglatgan bo'lib, koreys armiyasini tashkil etish va tizimini yaxshilash uchun Koreyaga jo'natilgan amerikalik ofitserlarning noto'g'ri boshqaruviga nisbatan norozilik ruhida "johil ofitser" ma'nosiga ega bo'lgan.

8) 과연 (haqiqatan ham) ravishining ham kelajakda bo'lishi kutilayotgan voqea-hodisa yoki boshqalarning gapiga shubhalanish va aksincha, qabul qilingan ma'lumotning rostligini tasdiqlash ma'nolari zidlanadi. Lug'atlarda so'zning tasdiqlash ma'nosigina berilgan bo'lsa-da, so'zning shubhalanish ma'nosida kelishi matnda yuzaga chiqadi:

글쎄, 과연 너의 말대로 될까?

Qaydam, haqiqatan ham sen aytganingdek bo‘larmikan?

작품을 보니 소문에 들던 대로 이 사람은 과연 훌륭한 예술가로구나.

Asarni ko‘rib, mish-mishlar orqali eshitganimdek, bu odamning haqiqatan ham buyuk rassom ekanligini angladim.

9) **놋다** so‘zi ko‘p ma’noli bo‘lib, so‘zning semantikasida “tashlab yubormoq, qo‘yib yubormoq” va “kerakli joyga qo‘yib qo‘ymoq” zid ma’nolari uchraydi:

나는 냇을 놓고 한동안 최 노인의 입담을 귀담아들었다.

Men bir muddat o‘zimni yo‘qotib, qariya Choyning so‘zlarini maftun bo‘lib tingladim.

도시락 하나를 꺼내 책상 밑에다 놓고 떠먹기 시작했다.

Men tushlik qutisini olib, stol ostiga qo‘ydim va ovqatlana boshladim.

정명잔 대립곶 – darajaviy munosabatdagi zidlanish ikki ma’no ma’lum bir o‘lchovning chegaralari o‘rtasida joylashgan va o‘rta so‘zga ega bo‘lgan munosabatni anglatadi. Agar bir ma’no daraja-oppozitsiya munosabatida bo‘lsa, bunda semantik xususiyatni salbiylashtirish qarama-qarshi ma’noning semantik xususiyatini ijobiylashtirishni anglatmaydi.

Xuddi shunday enantioseмик so‘zga misol **‘존’ (1)** so‘zidir. Ravish so‘z turkumiga mansub bo‘lgan bu so‘z darak mazmunidagi gaplarda kelsa “bir oz, kam miqdorda” ma’nosini anglatadi, ritorik so‘roq gaplarda esa “qanchalik ko‘p, ko‘p miqdorda” ma’nolarida keladi.

천장에 켜진 불이 눈에 좀 거슬렀다.

Shiftda yonib turgan chiroq biroz ko‘zni qamashtirardi.

섬세한 수공과 은은한 광택, 그리고 이 무게 있는 자태가 좀 좋습니까?

Nafis qo‘l mehnati, yorqin porlash va ixcham ko‘rinish juda ajoyib-a?

Daraja munosabatidagi zidlanish hissiy holat so‘zlari, undov so‘zlar doirasida ham uchraydi:

2) **킹사**

1. 감탄해 하는 말.

등산객들은 가을 단풍에 탄사를 연발했다.

Toqqa chiquvchilar kuzgi xazonrezgi barglarni ko'rib lol qoldilar.

2. 탄식해 하는 말.

낙심한 그의 입에서 탄사가 절로 흘러나왔다.

Ma'yus holda uning lablaridan bir xo'rsinish chiqdi.

Birinchi gapda toqqa chiquvchilar kuzgi barglarning chiroyli manzarasini yoqtirib lol qolganlari ijobiy ma'noni ifodalasa, ikkinchi gapdagi ma'yus insonning holatida bu so'z salbiy ma'noda xo'rsinishni ifodalab kelmoqda.

3) 옳구

1. 매우 반갑거나 기분이 아주 좋을 때 내는 말

예구, 이게 누구야? 김 사장 아닌가? 정말 반갑네 반가워.

Oh, bu kim ekan-a? Boshliq Kim emasmi? Ko'rganimdan juda xursandman.

2. 크게 절망하거나 안타까워 탄식할 때 내는 말

예구, 이제 난 누굴 믿고 사나.

Oh, endi men kimga ishonib yashayman?

Daraja munosabatidagi zidlanishning keyingi ko'rinishi emotsional-baholovchi so'zlar orasida ko'rinadi.

4) 박절핍다

1. (무엇이) 남에게 뒤지거나 빠지지 않을 만큼 의젓하고 번듯하다.

쥐꼬리만한 월급으로는 버젓한 집 한 채 장만하기도 힘들다.

Sichqonning dumidek arzon maoshga yaxshi uy sotib olish qiyin.

2. (사람이나 그 언행이) 눈치를 보거나 부끄러움을 느끼지 않고 보란듯이 뻔뻔하다.

경찰의 단속에도 불구하고 극장 앞에는 암표상들이 버젓하게 진을 치고 있었다.

Politsiya tazyiqlariga qaramay, skalperlar uyalmasdan teatr oldida qarorgoh qurib olishgan.

Misollarda keltirilganidek, "버젓하다" "qadr-qimmatli va hurmatli bo'lish, obro'li" yoki "o'zini ko'rsatish va uyatsiz bo'lish" degan ma'nolarni anglatib, so'zning ijobiy yo salbiy ma'noda kelayotgani nutqda qo'llanilganda bilinadi.

5) 독다

1. 기계나 기관의 기능이 작동하다.

공장 안에서 몇 대의 기계가 힘차게 돌고 있었고 십여 명의 직공들이 바쁘게 움직이고 있었다.

Zavod ichida bir nechta dastgohlar shiddat bilan ishlayotgan va o'nga yaqin ishchilar ish bilan band edi.

2. 정신이 이상해지다.

머리가 돌다- *boshi aylanmoq.*

3. 눈이나 머리 따위가 정신을 차릴 수 없도록 아찔하여지다.

담배를 한 모금 빨자 머리가 핑 돌았다.

Sigaretidan bitta chekishim bilan boshim aylanishni boshladi.

Birinchi gapda soʻz uskuna yo jihozga nisbatan “harakatlanmoq, yaxshi ishlamoq” maʼnolarida ijobiy, ikkinchi va uchinchi gaplarda “ruhiyati, feʼli aynishi”, “koʻzi tinishi va boshi aylanishi” maʼnolarida salbiy boʻlib kelmoqda.

6) 송증핍다

1. 마음이 순박하고 진실하다.

순진한 시골 처녀 - *begʻubor qishloq qizi.*

2. 세상 물정에 어두워 어수룩하다.

그는 너무 순진하여 세상 물정을 모른다.

U shunchalar goʻlki, dunyoda nimalar boʻlayotganidan bexabar.

Soʻzning birinchi maʼnosi “begʻubor, sodda” ijobiy, ikkinchi maʼnosi dunyoda boʻlayotgan voqea-hodisalarga nisbatan “bexabar, eʼtiborsiz, goʻl” salbiy maʼnoda kelmoqda.

7) 존옹주다

1. 매우 뛰어나거나 대단히 좋아서 꼼짝 못하게 하다.

그 영화는 진짜 죽여준다 - *U kino odamni oʻldiradi.*

2. 대단히 나빠서 꼼짝 못하게 하다.

이 많은 일로 어떻게 끝내나, 이거 사람 죽여주는군.

Buncha koʻp ishni qanday tugataman, bu odamni oʻldiradi-ku.

죽여주다 (oʻldirmoq) soʻzi biror narsaning yaxshi va ajoyibligidan insonga juda yoqishi maʼnosida ijobiy maʼnoda, yoki aksincha, biror narsaning juda

yomonligidan, qiyinligidan unga chiday olmaslik ma'nosida salbiy ma'noda keladi. So'zning har ikki ma'nosi ham ko'chma ma'noda qo'llaniladi.

9) 읍슬다

1. 웃음이 나올 만하다.

이것은 해학물로 그 내용 자체가 우습고 재미있는 작품이다.

Bu yumoristik asar, uning mazmuni ham qiziqarli va kulguli.

2. (어떤 일이나 모습이 예상했던 것과 달라) 이상하다.

정표는 스스로 생각해도 좀 우습다 싶을 만큼 감정을 과장해서 성을 내었다.

Jeongpyo his-tuyg'ularini haddan tashqari oshirib yubordi va u buni biroz bemani deb o'ylab, jahli chiqdi.

3. 대단치 아니하거나 하잘것없다.

그의 태도는 마치 나를 우습게 생각하는 것 같아서 기분이 나빠.

Uning harakatlari xuddi meni masxara qilayotgandek tuyulgani uchun o'zimni yomon his qilyapman.

4. adj 공교롭고 이상하다.

뭐가 잘못되었는지는 몰라도 일이 의도한 대로 되지 않고 아주 우습게 되어 버렸다.

Nimada xato ketganini bilmayman, lekin ish ko'ngildagidek ketmadi va juda g'alati bo'lib ketdi.

우습다 so'zining lug'atlarda "qiziqarli, kulguli" (ijobiy), "yoqimsiz, qarashga noqulay" (salbiy), "ahamiyatsiz, arzimas" (salbiy), "murakkab, g'alati" (salbiy) ma'nolari farqlanadi.

9) 구이 so'zi lug'atlarda "qasddan, ataydan" degan ma'nolarni beruvchi ravish sifatida keltiriladi. Ammo muloqotda so'z qilishingiz shart bo'lmagan yoki qilish kerak bo'lmagan harakatni bajarishga nisbatan keladi. Bunda so'z "kerak", "shart", "majbur" ma'nolarini bildiradi. So'z nutqda ohangni kuchaytirish, urg'u berish uchun qo'llaniladi.

1. 마음을 써서 꼭. 어려운 데도 일부러.

싫으면 굳이 나오지 않아도 좋다.

Xohlamasang, albatta chiqishing kerak degani emas.

2. 고집스럽게.

김 선생님은 빈손으로 가기가 뭣하여 사들고 간 작은 선물을 굳이 사양하였다.

Ustoz Kim bo'sh qo'l bilan qaytishimni xohlamadi, shuning uchun qo'ymasdan olib kelgan kichik sovg'alarini qo'limga tutqazdi.

10) 기릿힘다

1. 어떤 일이 놀랍거나 엄청나서 어이가 없다.

텅텅 빈 호주머니로 일요일을 즐긴다는 건 정말 기막힌 일이다.

Bo'm-bo'sh cho'ntaging bilan yakshanba kuni mazza qilamiz deyishing g'alati.

2. 이루 다 말할 수 없을 만큼 좋다.

그들은 동화처럼 기막힌 집에 살고 있었다.

Ular ertaklardagidek juda chiroyli uyda yashashardi.

So'z salbiy ma'noda kelganda "bema'ni, tuturuqsiz ish, vaziyat" ma'nolarini anglatsa, ijobiy ma'noda "ajoyib, ta'riflashga til ojiz" ma'nolarida keladi. Xuddi shunday ma'nolarda qo'llanuvchi so'zlardan yana biri "기짱다" (11) so'zidir.

12) 압박 – tarixda hukmron tabaqa sinflaridan biri bo'lgan yangbanlar madaniyatli, odob-axloqli bo'lib, xalq manfaatlari uchun xizmat qilganlar. Aynan shu sababli ushbu so'z bugungi kungacha o'zining ijobiy – "madaniyatli, axloqli" ma'nosini saqlab qolgan. Ammo, Choson sulolasi qulagach, mamlakatda vazifasini suistemol qiluvchi mansabdorlar ham ko'payib, ularga nisbatan xalq orasida nafrat kuchaygan. Natijada so'z salbiy ma'no kasb etgan.

"Yangban tushunchasining Choson sulolasining oxirida va yapon mustamlakachilik davrida sezilarli darajada o'zgarishligining iloji yo'q edi. Ushbu davrda yangbanlar orasida soxta qaydlardan foydalanish, davlat lavozimlarini sotib olish va sotish, hokimiyat nasabnomalarini soxlatalashtirish kabi holatlar kuzatilgan.

Bu holat Choson sulolasi oxirida an'anaviy ijtimoiy-siyosiy tizim qulagach yanada jiddiylashdi. Endilikda oddiy xalq orasida yangbanlarga nisbatan "u yangban", "bu yangban" sifatida mensimay munosabat qilish

holatlari ko‘paydi. Ammo ushbu qarashlar “yangban” tushunchasining asl ma’nosiga mutlaqo zid”.

Yangbanlarga oid bunday ikki xil qarashlar koreys xalq maqollarida ham namoyon bo‘ladi:

양반은 물에 빠져도 개해엄은 안 한다 - *Yangban suvga tushib ketsa ham itdek suzmaydi (ijobiy);*

량반은 더러워서 범도 안 잡아 먹는다 - *Yangban iflosligi uchun yo‘lbars ham uni tutib yemaydi (salbiy).*

13) 줍금숨런다

1.adj 마음 쓰는 것이 지극히 정성스럽고 극진한 데가 있다.

아내는 남편의 완쾌를 바라며 몇 년을 지궁스럽게 간호하였다.

Xotin erining tuzalib ketishiga umid qilib, bir necha yil jon-jahdi bilan unga g‘amxo‘rlik qildi.

2.adj 귀찮게 끈덕진 데가 있다.

소이는 고등학교 때 우리 오빠를 지궁스럽게도 쫓아다녔었지.

Soyi yuqori maktabda akamning ortidan o‘lgudek tinmay yurardi.

So‘z ijobiy ma’noda qo‘llanilganda “butun qalbi bilan, mehr bilan” ma’nosida, salbiy ma’noda kelganda esa “insonni bezdiradigan darajada” ma’nolarida keladi.

밤햇쟁 대립곶겼 ” yo‘nalish munosabatli zid ma’nolilikda ikki ma’no qarama-qarshi yo‘nalishda harakatlanib, ziddiyatni hosil qiladi. Bunday munosabatli so‘zlar ham vaqt doirasida, joy doirasida, aloqa-munosabat doirasida, hurmat doirasida, boshlanish va tugallanish doirasida, harakat-faoliyat doirasida kabi turlarga bo‘linadi.

Vaqt doirasida ba’zi so‘zlar o‘z ichida “oldin/o‘tmish” va “keyin/kelajak” ma’nolarida zid ma’noga ega bo‘ladi. Qiyoslang:

1) 앓

1. 시간이나 차례의 먼저.

앞의 이야기에서 사람은 정직해야 한다는 교훈을 얻을 수 있다.

Avvalgi hikoyadan biz odamlar halol bo‘lishi kerakligi haqida saboq olishimiz mumkin.

2. 미래

지난 일은 잊고 앞만 보면서 살아라.

O‘tgan ishlarni unutib keyinga qarab yasha.

2) 께렷뵵다 so‘zining ham lug‘atlarda “o‘tgan ish haqida o‘ylov” va kelajak haqida tashvish” ma’nolari keltiriladi.

1.verb 이미 지난 일을 다시 돌이켜 생각하다.

2.verb 앞일을 헤아려 염려하다.

3) 금밤

1. 조금 뒤에 곧

나는 금방이라도 내려칠 듯이 망치를 치켜들었다.

Men bolg‘ani istalgan vaqtda urmoqchi bo‘lgandek ko‘tardim.

2. 조금 전에 막.

금방 닦아 신고 온 손님의 신발도 이 곳을 지나면 엉망이 되고 만다.

Mehmonning biroz oldin tozalangan oyoq kiyimi ham bu yerdan o‘tsa, rasvo bo‘lishi aniq.

So‘zning asl ma’nosi “nutqiy jarayondan oldingi vaqt” ma’nosi bo‘lib, uning “nutqiy jarayondan biroz keyin” ma’nosi matnda qo‘llanilganda anglashiladi.

4) 밤금 so‘zi ham “nutqiy jarayondan oldin” va “nutqiy jarayondan keyin” ma’nolari bilan zidlanadi.

방금 들어온 소식 - *biroz avval yetib kelgan xabar.*

방금이라도 비가 올 것 같다 - *birozdan so‘ng yomg‘ir yog‘adiganga o‘xshaydi.*

5) 아곁

1.noun 조금 후.

선생님, 잠깐 쉬었다가 아곁에 마무리하는 것은 어떠실는지요?

Ustoz, ozgina dam olib, ishni keyinroq tugatsam ham bo‘ladimi?

2.noun 조금 전.

김 선생님께서는 아곁에 다녀가셨습니다.

Ustoz Kim biroz avval jo'nab ketdilar.

Xuddi shunday vaqt doirasida o'z ichida zid ma'noga ega so'zlardan yana biri **홀겔** (6). So'zning lug'atlarda "o'tmishga qarash" va "kelajakni o'ylash" ma'nolari berib o'tiladi.

Joy tushunchali enantiosemik so'zlarga misol qilib 빠지다, 비천, 에누리하다, 출경하다, 출사하다 kabi so'zlarni keltirishimiz mumkin. **빙좁다** (6) so'zi "ichkariga tushib ketib kirmoq, mahkamlanmoq" va "tashqariga chiqib ketmoq" ma'nolari o'rtasida, ya'ni, "ichkari" va "tashqari" joy munosabatida zid ma'nolarga ega. Qiyoslang: 그러자 웬걸, 갑자기 발 밑에 물에 허전해지면서 몸이 물 속으로 쑥 빠졌다(*Keyin negadir oyog'im ostidagi suv birdan bo'm-bo'shdek bo'lib, vujudim suvga tushib ketdi*); 이가 빠졌다(*Tishim tushdi*).

Shunga o'xshash **추겍핍다** (7) so'zida zidlik "Seulga ketmoq" va "Seuldan chiqmoq" ma'nolari o'rtasida, **추사핍다** (8) so'zida "ofisga ketmoq" va "ofisdan chiqmoq" ma'nolari o'rtasida namoyon bo'ladi. **븨창** (9) so'zida esa "otilib chiqayotgan buloq" va "qoyalardan pastga qarab oqib kelayotgan suv" semantik ma'nolari o'rtasida zidlik mavjud, ya'ni joy munosabatidagi zidlanish "yuqori" va "past" tarzida anglashiladi. Xuddi shu kabi **엇놈룻핍다** (10) so'zida ham zidlanish "yuqori" va "past" munosabatida yuzaga chiqadi, ya'ni so'z narxga nisbatan "narxini oshirmoq" va "narxini pasaytirmoq" zid ma'nolariga ega. Qiyoslang: 이런 싸구려 제품까지 에누리해서 가격을 부르다니 물건 사기가 겁이 난다. (*Bunday arzon mahsulotga ham katta narx qo'yib olishganiga biror narsa sotib olishga ham qo'rqib qoldim*); 버섯 한 봉지를 반값에 에누리하기에 두 봉지나 사 왔다 (*Bir xalta qo'ziqorinni yarim narxiga tushirgani uchun 2 xalta sotib oldim*).

Munosabat tushunchali enantiosemiyada uzual ma'nolar "sotmoq – xarid qilmoq", "ijaraga bermoq – ijaraga olmoq", "bermoq – olmoq", "qarz beruvchi kishi – qarz oluvchi kishi" tarzida qarshilanadi.

"Sotmoq – xarid qilmoq" tarzidagi zidlanish 고주하다, 사다, 팔다 kabi bir necha enantiosemik so'z ma'nolarida namoyon bo'ladi. Qiyoslang:

11) 겔주핍다

1. 술을 사다 (*aroq sotib olmoq*).
2. 술을 팔다 (*aroq sotmoq*).

12) 사다

1. 돈을 주고 그 물건을 제 것으로 만들다.

어머니는 고바윗길 중턱쯤에 있는 구멍가게에서 딸기를 두 근 샀다.

Onam Gobaevet-gil yuzida bo'lgan burchakdagi do'kondan ikki funt qulupnay sotib oldi.

2. (곡식 등을 팔아서) 돈을 장만하다.

할아버지가 광에서 곡식을 내어 돈을 사 오셨다.

Bobom kondan don olib, uni sotib pulga almashtirib keldilar.

13) 팔다

1. (돈을 받고) 어떠한 물건을 남에게 남겨 주다.

그는 이십 원 시세로 받아 온 물건을 육십 원으로 내다 팔았다.

U 20 vonga olgan mollarini 60 vonga narxlab sotdi.

2. (돈을 주고) 곡식을 사다.

그는 봉급날 쌀 팔고 연탄 사는 어려운 형편이었다.

U ish haqi oladigan kuni puliga guruch va ko'mirgina sotib oladigan darajada og'ir ahvolda edi.

“Ijaraga bermoq – ijaraga olmoq” munosabatidagi zidlanish 임대하다, 차대하다, 대출하다, 대차하다 so‘zlari doirasida uchraydi. Qiyoslang:

14) 임대핍다. 그는 가게를 직접 운영하지 않고 임대로 경영을 해서 수익을 나누어 갖는 방법을 택했다 (*U do'konni o'zi yurg'izgandan ko'ra ijaraga berib foyda ko'rish yo'lini tanladi*); 김 판사는 영동 사거리에 사무실을 임대해서 변호사 업무를 시작했다 (*Sudya Kim Yeongdong chorrahasida ofis ijaraga oldi va advokatlik faoliyatini boshladi*).

15) 대추핍다. 도서관의 대출 업무가 전산화되면서 이용자가 늘고 있다 (*Kutubxonada ijaraga berish xizmati kompyuterlashtirilgach, mijozlar soni oshyapti*); 우리는 일단 집을 사고 모자라는 잔금은 대출을 받을 예정이다 (*Biz avval uyni sotib olib, qolgan pulni kredit olib to'lashni rejalashtiryapmiz*).

16) **대짱빚다**. 김 씨는 은행에서 사업 자금을 대차했다 (*Janob kim bankdan biznesi uchun mablag' qarzga oldi*); 은행에서 김 씨에게 사업 자금을 대차했다 (*Bankdan janob Kimga biznes uchun mablag' qarzga berishdi*).

“Bermoq – olmoq” tarzidagi zidlanish **봄납빚다** (17) so‘zining “mahsulotlarni to‘plash, olish” va “mahsulotlarni taklif qilish, berish” ma’nolari o‘rtasida uchraydi:

이것은 어느 지방관이 봉납을 한 물건입니다 (*Bu mahalliy gubernator tomonidan sovg'a qilingan narsa*); 지주는 소작인들에게서 수확량의 7할을 봉납했다 (*Yer egasi ijarachilardan hosilning 70% ini oldi*).

“Qarz beruvchi kishi – qarz oluvchi kishi” tarzidagi zidlanish **빚잡이**(18) so‘zi orqali anglashiladi. Qiyoslang: 빚쟁이에게 시달리다 (*qarz beruvchi tomonidan bezor qilinmoq*); 부도가 나서 하루아침에 빚쟁이가 되었다 (*Biznesim bankrot bo'lgach, bir kundayoq qarzdorga aylanib qoldim*).

Hurmat tushunchali lisoniy enantiosemiyada ma’nolar “birovni yuqori ko‘rish – o‘zini past ko‘rish” tarzida qarshilanadi. Bunday so‘zlarga misol qilib **개올리다**, 말씀 so‘zlarini keltirish mumkin. Qiyoslang: **갈오룻다** (19). 그 늙은 마름은 주인집 아이를 개올리며 각듯이 떠받들었다 (*Chol xo'jayinining farzandiga hurmat bilan qarab munosabat qildi*); 존경하는 형님 앞에서 저는 제 자신을 개올릴 수밖에 없습니다 (*Hurmat qilgan akamning yonida o'zimni past tutishdan boshqa ilojim yo'q edi*).

만쓸 (21). 선생님의 말씀대로 저는 집으로 돌아가겠습니다 (*Ustoz aytganlaridek, uyga qaytaman*); 여기서 의논한 것을 법헌께 소상하게 말씀을 드리겠습니다. 그러면 또 달리 하실 말씀 없으십니까? (*Bu yerda muhokama qilingan narsalarni sizga batafsil aytib beraman. Xo'sh, yana aytmoqchi bo'lgan narsangiz bormi?*) 말씀 so‘zi 저 (men) va 드리다 (bermoq, taqdim qilmoq) so‘zlari bilan birga kelganda birinchi shaxsning o‘zini past darajada tutishini, kamtarlikni ifodalaydi.

Boshlanish va tugallanish munosabatidagi zidlanish **이짱빚다** (22) so‘zining “birinchi bo‘lib yetib kelmoq” va “birinchi bo‘lib boshlamoq” ma’nolari o‘rtasida kuzatiladi: 1. 첫째로 도착함. 2. 맨 처음 시작함.

Harakat tarzidagi zidlanish 원웁핍다 (23) soʻzining “uzoqqa borib oʻynash” va “uzoq joyga borib oʻqib-oʻrganish” maʼnolari orqali yuzaga chiqadi. Bunda soʻz “oʻynamoq” va “oʻqimoq” maʼnolari bilan zidlanmoqda:

원유. 1. 멀리 가서 놀. 2. 수학이나 수업을 위하여 먼 곳에 감.

Shu bilan birga 쫓다 (24) soʻzida ham “biror obyektни ushlayman uchun tezlik bilan uni quvlamoq” maʼnosi hamda “biror obyektни turgan joyidan ketishga majburlab quvlamoq” maʼnolari zidlanadi. Qiyoslang: 두 마리의 토끼를 쫓는 자는 한 마리의 토끼도 못 잡는다 (*Ikkita quyonni ushlayman deb quvlagan bittasini ham ushlolmaydi*); 그는 잠을 쫓기 위하여 찬물에 낮을 씻었다 (*U uyqusini qochirish uchun yuzini sovuq suv bilan yuvdi*).

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. 임석진 외. 철학사전. – 서울, 중원문화, 2009 – 212 쪽.
2. 연세대한국어사전. 연세대학교 언어정보 개발연구원 편, 2005.
3. 조항범. ‘전염’에 의한 의미 변화에 대하여 // 인문학지 (충북대학교 인문과학 연구소). 1999.- №17. – 1-42 쪽.
4. 민중 옛센스 국어사전 제 6 판. 민중서림, 2006.
5. 이재운, 박숙희. 유동숙 편지, 양반 항목. – 2008.
6. 예림당. 우리말 속담 4000. – 서울: 대한출판문화, 2010. – 308 쪽.